

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025 sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>™</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
151 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'aforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....	12
<b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....	19
<b>Usmonov Abbos Valijon o'g'li</b>	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises .....	23
<b>Sheraliyev Axror Sodiqovich</b>	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish .....	30
<b>Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari .....	37
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi .....	42
<b>Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari .....	46
<b>Kurbonova Raxima Jamshedovna</b>	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati .....	49
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar .....	54
<b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка .....	58
<b>Юсуфов Асфандиёр Элдор угли</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari .....	63
<b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi .....	67
<b>Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich</b>	
“Intellectual mulk”, “Intellectual kapital”, “Nomoddiy aktiv” tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik .....	73
<b>N.D.Maxmudova</b>	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .....	77
<b>Iskandarov Kudrat Shuxratovich</b>	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	83
<b>Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich</b>	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi .....	87
<b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar .....	91
<b>Qosimova Lola Sultanovna</b>	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari .....	96
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar .....	100
<b>Rajabov Alibek Xushnudbekovich</b>	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
<b>Primova Shakhnoza Komiljonovna</b>	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari .....	110
<b>Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi</b>	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish .....	115
<b>Seitlepesov Azamat Orazbayevich</b>	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review .....	120
<b>Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi</b>	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
<b>Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li</b>	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili .....	131
<b>Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.</b>	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi .....	137
<b>Baratov J.N.</b>	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari .....	144
<b>To'ychiyev Otabek Shamshiyevich</b>	

# TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

## To'ychiyev Otabek Shamshiyevich

“O'zmilliybank” AJ Toshkent viloyat bosh boshqarmasi

Biznes mijozlarga xizmatlar ko'rsatish va biznesni qo'llab-quvvatlash guruhi – bosh buxgalter.

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklarida aktivlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan, bank aktivlarini optimal joylashtirish, likvidlikni ta'minlash va daromadlilikni oshirish mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida aktivlarni boshqarishga oid statistik ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** aktivlar boshqaruvi, likvidlik, rentabellik, risklarni boshqarish, portfel diversifikatsiyasi, moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi, aktiv-passiv muvozanati.

**Abstract:** The article highlights the theoretical and practical aspects of asset management in commercial banks, examining the mechanisms of optimal allocation of bank assets, ensuring liquidity, and increasing profitability. In addition, the article provides an analysis of statistical indicators related to asset management in the banking system of Uzbekistan.

**Keywords:** asset management, liquidity, profitability, risk management, portfolio diversification, financial stability, capital adequacy, asset-liability balance.

**Аннотация:** В статье освещены теоретические и практические аспекты управления активами в коммерческих банках, рассматриваются механизмы оптимального размещения банковских активов, обеспечения ликвидности и повышения прибыльности. Кроме того, представлено исследование статистических показателей, связанных с управлением активами в банковской системе Узбекистана.

**Ключевые слова:** управление активами, ликвидность, прибыльность, управление рисками, диверсификация портфеля, финансовая стабильность, достаточность капитала, баланс активов и пассивов.

## KIRISH

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning dolzarbligi, avvalo, ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Bank faoliyatida aktivlar samarali boshqarilmasa, bankning moliyaviy barqarorligiga turli xavf-xatarlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, bugungi kunda aktivlar boshqaruvini samarali yo'lga qo'yish nafaqat bankning ichki ehtiyojidan, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. Eng avvalo, kredit portfelining sifati pasayishi, to'lovga qodir bo'lmagan mijozlar sonining ortishi hamda qaytarilmagan kreditlar hajmining ko'payishi bank daromadlarini kamaytiradi va likvidlik muammolarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, aktivlarni noto'g'ri joylashtirish investitsiyalardan kutilgan foydaning kamayishiga hamda resurslarning samarasiz ishlatilishiga olib keladi.

Banklarda aktivlarni boshqarish samaradorligi, eng avvalo, aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi (ROA) orqali ifodalanadi va u bank faoliyatining moliyaviy natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston bank tizimida aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi so'nggi yillarda sezilarli tebranishlarni boshdan kechirmoqda. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 2025-yilda 1,2 foiz bandga kamayib, 1-yanvar holatiga 1,4 foizni tashkil etdi [6]. Shundan kelib chiqib, bank aktivlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik olim O.I. Lavrushin bank ishi va moliya bozorlariga oid tadqiqotlarida tijorat banklari aktivlarini boshqarish jarayoni bankning barqaror daromadlarini shakllantirish, likvidlikni ta'minlash va risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, u bank aktivlari sifatini oshirish orqali nafaqat alohida bankning, balki butun moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinligini qayd etadi.

B. Berdiyarov ilmiy izlanishlarida bank aktivlari sifatining daromadlar barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinib, ularning samarali boshqarilishi moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi omil



ekanligi ta'kidlanadi [2]. Aktivlar sifatini yuqori darajada saqlash bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy tebranishlarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Sh. Baxriddinov tomonidan olib borilgan izlanishlarda O'zbekistondagi tijorat banklarining kredit portfeli, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hamda asosiy vositalarga yo'naltirilgan mablag'lar tarkibi tahlil qilingan. Unda diversifikatsiya, likvidlikni saqlash, daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish masalalari o'rganilgan [3]. Fikrimizcha, bank aktivlarini optimallashtirish orqali ularning barqarorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va moliya bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

M. Xolmuradov ta'kidlashicha, bank aktivlari samaradorligini oshirish masalasi nafaqat bank tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash, balki butun iqtisodiyotning rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi [4]. Tijorat banklari faoliyatida aktivlar samaradorligining pasayishi, bir tomondan, vakillik hisobvaraqlarida resurslarning yetishmasligiga olib kelsa, boshqa tomondan, bankning moliya bozorida raqobatbardoshligi va mavqeining susayishiga sabab bo'ladi.

Sh. Mardonova fikriga ko'ra, bank aktivlarini boshqarishning murakkabligi, avvalo, ushbu jarayonning turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanishi bilan izohlanadi [5]. Ana shunday murakkab va o'zaro bog'liq sharoitda aktivlarni boshqarish tizimi nafaqat mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni, balki kelgusidagi moliyaviy oqimlarni aniq prognozlashni ham talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida aktivlarni boshqarish mexanizmlarini o'rganishda tizimli, qiyosiy tahlil hamda statistik-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Aktivlarni boshqarishning nazariy asoslarini yoritishda deduktiv va induktiv yondashuvlardan foydalanildi. Amaliy jihatlarni tahlil qilishda esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining rasmiy hisobotlari axborot manbai sifatida xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aktivlarni boshqarish – bu tijorat banki uchun resurslarni shakllantirish manbalari bilan ularni joylashtirish imkoniyatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash jarayonidir. Ushbu jarayon quyida 1-rasmda keltirilgan asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).

### Resurs bazasining barqarorligini baholash

- Jalb qilingan mablag'larning mijoz hisoblarida saqlanish ehtimolini va shartnoma sharoitlariga muvofiqligini aniqlash (depozit riski).

### Qarzdorning kreditga layoqatini va ssuda berishdan kutiladigan natijani baholash (kredit riski).

### Resurslarni joylashtirishda samarali foiz stavkalarini aniqlash va ularni jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkalari bilan uyg'unlashtirish (foiz riski).

1-rasm. Aktivlarni boshqarish jarayonining tarkibiy qismlari

Resurs bazasining barqarorligini baholash tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va jalb qilingan mablag'larning muddatliligi bilan bevosita bog'liqdir. Mablag'larning uzoq muddat davomida bank balansida saqlanishi resurs bazasining barqarorligini ta'minlab, likvidlik ko'rsatkichlarining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bankning moliyaviy barqarorligi hamda aktivlarni boshqarish samaradorligi



oshadi. Ushbu jarayon depozit riskini aniqlash orqali baholanadi, ya'ni mijozlar tomonidan qo'yilgan mablag'larning shartnoma sharoitlariga muvofiqligi hamda ularning muddatidan oldin qaytarib olinishi ehtimoli tahlil qilinadi (2-rasm).

### 1. Kredit operatsiyalari

- Berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizlar.
- Veksellar bo'yicha foizli daromad.
- Oldingi yillardagi kredit operatsiyalaridan olingan daromad.

### 2. Valyuta operatsiyalari

- Chet el valyutasi bilan operatsiyalardan olingan daromad.
- Hosilaviy moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar.

### 3. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar

- Qarzdorlik majburiyatlariga kiritilgan investitsiyalardan olingan foizli daromad.
- Qimmatli qog'ozlarni qayta sotishdan olingan daromad.
- Aksiyalardan olinadigan dividendlar.
- Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalardan olingan boshqa daromadlar.

### 4. Depozit operatsiyalari va omonatchilar topshirig'iga ko'ra operatsiyalar

- Kassa operatsiyalari, inkassatsiya va hisob-kitob operatsiyalaridan olingan komissiyalar.
- Qimmatbaho metallar bilan operatsiyalardan olingan daromad.
- Ortiqcha pul mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad.

#### 2-rasm. Jalb qilingan mablag'larni taqsimlash yo'nalishlari

Tijorat banklarining daromad manbalari, avvalo, ularning resurs bazasining hajmi va barqarorligi hamda ushbu resurslarni aktiv operatsiyalarga samarali yo'naltirish darajasi bilan belgilanadi. Bankning asosiy aktiv operatsiyalaridan biri kredit operatsiyalari bo'lib, bunda ajratilgan kreditlar va veksellar asosida foizli daromad shakllanadi. Shu bilan birga, avvalgi davrlarda berilgan kreditlardan ham pul mablag'lari oqimi ta'minlanadi.

Bank faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri valyuta operatsiyalari hisoblanadi. Mazkur operatsiyalar xorijiy valyuta bilan amalga oshiriladigan tranzaksiyalardan tushum olish imkonini beradi. Shuningdek, turli moliyaviy vositalar — opsiya, forvard, fyuchers va svop bitimlari orqali qo'shimcha daromad manbalari shakllantiriladi. Bunday faoliyat bankning diversifikatsiyalashgan daromad bazasini yaratish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Daromadlarning navbatdagi manbai qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardir. Bunga qarzdorlik majburiyatlariga investitsiyalardan olinadigan foizli daromad, qimmatli qog'ozlarni qayta sotishdan tushadigan foyda, aksiyalardan olinadigan dividendlar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar kiradi. Shu bilan birga, banklar depozit va komissiya operatsiyalaridan ham foyda oladilar. Xususan, kassa, inkassatsiya va hisob-kitob operatsiyalaridan tushadigan komissiyalar, qimmatbaho metallar bilan bog'liq operatsiyalardan keladigan daromadlar hamda mijozlarning ortiqcha pul mablag'larini joylashtirishdan olinadigan foyda bankning resurs bazasini kengaytiradi. Bularning barchasi bank aktivlarini boshqarish samaradorligi va foydalilik darajasini ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarish jarayonini baholashda aktivlarning tarkibiy tuzilishi, ularning daromad keltirish imkoniyatlari hamda rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Bunday tahlil bank resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash, aktivlarning risk darajasi va likvidlik imkoniyatlarini baholash hamda ularni optimal boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, aktivlarning daromadlilik darajasi va rentabellik ko'rsatkichlari bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi hamda uning bozor sharoitida raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Quyida 1-jadvalda O'zbekiston bank tizimining aktivlar rentabelligi ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).



1-jadval. Bank tizimi bo'yicha soliq to'laguncha o'rtacha foyda va aktivlar rentabelligi (ROA) (1-yanvar holatiga) [6]

Davr	Soliq to'laguncha o'rtacha foyda (trln. so'm)	Aktivlar rentabelligi (ROA, %)
2021-yil	7,0	2,2
2022-yil	11,1	2,5
2023-yil	12,6	2,5
2024-yil	15,2	2,6
2025-yil	9,7	1,4

2021–2024-yillar davomida tijorat banklari o'z aktivlaridan yuqori darajada foydalangan va foyda ko'rsatkichlari oshgan. Xususan, 2024-yilda soliq to'laguncha foyda 15,2 trillion so'mni tashkil etib, aktivlar rentabelligi (ROA) 2,6 foiz darajasida qayd etilgan. Bu davr mobaynida banklar kredit portfelining kengayishi, investitsiya faoliyatining faollashuvi hamda ichki iqtisodiy o'sishdan samarali foydalanishga erishgan deb baholash mumkin.

2025-yilda esa o'rtacha foyda 9,7 trillion so'mga tushib, ROA 1,2 foiz punktga kamaygan. Bu esa bank tizimida qisqa muddatli daromadlarning pasayishini va aktivlardan foydalanish samaradorligining susayganini ko'rsatadi. Rentabellik darajasining pasayishi, ayniqsa, kredit portfeli sifatidagi o'zgarishlar va qarz to'lovlarning kechikishi bilan bevosita bog'liqdir.

Quyidagi 2-jadvalda "O'zmilliybank" AJning aktivlariga oid ma'lumotlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zmilliybank AJning aktivlari (mlrd. so'm) [7]

Aktivlar	2024-yil	2023-yil	2022-yil	2021-yil	2020-yil
Naqd pul va naqd pul ekvivalentlari	18422,74	14377,48	24446,0	10185,4	9379,0
Kredit institutlaridan qarzdorlik summalari	3565,13	6943,79	65287,	2681,0	1851,3
Hosilaviy moliyaviy aktivlar	259,39	179,04	92,4	-	119,2
Mijozlarga berilgan kreditlar	102570,84	94783,23	86475,7	72089,7	63475,7
Investitsiya qilingan qimmatli qog'ozlar	7441,67	7140,85	1746,8	1112,9	537,5
Hamkorlikdagi korxonalariga investitsiyalar	268,67	211,50	229,4	345,6	409,7
Asosiy vositalar va mulk	2307,30	2004,54	1072,6	924,5	91,5
Joriy daromad solig'i bo'yicha aktivlar	46,92	33,50	19,9	-	1398,3
Keyingi yillarga soliq aktivlari	19,18	202,67	280,8	421,3	397,2
Boshqa aktivlar	1463,02	612,80	385,1	471,9	474,2
Sotuvga chiqarilgan aktivlar sifatida tasniflangan aktivlar	438,53		-	-	-
<b>Aktivlar jami</b>	<b>136803,39</b>	<b>126489,41</b>	<b>121277,5</b>	<b>88232,2</b>	<b>78133,6</b>

2020–2024-yillar kesimida bank aktivlarining umumiy hajmi 78,1 trillion so'mdan 136,8 trillion so'mga yetib, qariyb ikki baravar o'sdi. Ushbu o'sish asosan mijozlarga berilgan kreditlar va naqd pul ekvivalentlari hisobiga yuz berdi. Kredit portfeli bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etib, 2024-yilda 102,6 trillion so'mga yetdi va jami aktivlarning 75 foizidan ortig'ini egalladi. Bu esa bankning daromad manbai sifatida kredit operatsiyalariga tayanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kredit risklarini samarali boshqarish va diversifikatsiya qilish zarurligi ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Naqd pul va naqd pul ekvivalentlari hajmining oshishi bank likvidligini mustahkamlab, qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkonini kengaytirgan. Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar 2020-yildagi 0,5 trillion so'mdan 2024-yilda 7,4 trillion so'mga o'sib, aktivlarni diversifikatsiya qilish va qo'shimcha daromad manbai yaratishda muhim o'rin egalladi. Shuningdek, asosiy vositalarga yo'naltirilgan mablag'lar ortgani bankning infratuzilmasini rivojlantirish va uzoq muddatli strategik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bank menejmenti faoliyatida aktivlarni boshqarish jarayoni, avvalo, ssuda operatsiyalari, valyuta operatsiyalari hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar ustidan samarali nazoratni o'rnatish va strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratiladi. Mazkur yo'nalishlar bankning moliyaviy barqarorligi, daromadlilik darajasi va risklarni boshqarish samaradorligini belgilovchi omillar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, menejmentning vazifasi nafaqat daromadlilikni maksimallashtirish, balki risklarni minimallashtirish orqali aktivlarni samarali boshqarishning optimal muvozanatini ta'minlashdan iboratdir. Daromadlilikni oshirish ko'pincha riskli operatsiyalar orqali amalga oshirilib, bankning risk darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois tijorat banklari jalb qilingan mablag'larni turli shakldagi aktiv operatsiyalarga yo'naltirish jarayonida likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlarining pasayishiga yo'l qo'ymasliklari zarur.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarish jarayonida an'anaviy usullardan biri sifatida Kredit-axborot tahliliy markazi (Kredit byurosi) faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Markazning asosiy funksiyasi – kredit tarixini tahlil qilish, ya'ni qarzdorlarning oldingi kredit majburiyatlarini bajarish darajasi, to'lovlarni amalga oshirish tezligi va kechikish holatlarini batafsil o'rganishdir. Ushbu ma'lumotlar banklarga qarz berish qarorlarini aniqroq va mas'uliyatli qabul qilish, kredit risklarini kamaytirish hamda aktivlarni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Shuningdek, Kredit byurosi reyting tizimi orqali qarzdorlarning moliyaviy holatini baholaydi va tasniflaydi. Bu tizim qarz oluvchilarni kredit qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va to'lov intizomi asosida guruhlash imkonini beradi, natijada banklar risklarni oldindan aniqlash va kredit siyosatini optimallashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, byuro axborot almashinuvi funksiyasini bajaradi. U banklar o'rtasida qarzdorlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish orqali takroriy kredit berish xavfini kamaytiradi, shuningdek, moliyaviy bozor ishtirokchilari o'rtasida shaffoflikni oshiradi. Bu mexanizm orqali banklar kredit portfellarini diversifikatsiya qilish, potentsial muammoli qarzlarni aniqlash va umumiy tavakkalchilik darajasini pasaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, Kredit byurosi faoliyati nafaqat tijorat banklarining kredit qarorlarini yaxshilash, balki butun moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va moliyaviy xavfsizlikni oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishda aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) mexanizmi muhim o'rin tutadi. U bank balansining ikki tomonini muvofiqlashtirish, resurslarning muddatliligi va qiymati bo'yicha uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. ALM orqali bank likvidligini boshqarish, foiz marjasini optimallashtirish va moliyaviy oqimlarni prognozlash imkoniyati yaratiladi. Bu mexanizm tijorat banklarining daromad va xarajatlarini muvozanatlashtirishda ilmiy-amaliy vosita sifatida keng qo'llaniladi.

Shuningdek, bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimi (Risk Management) markaziy o'rin egallaydi. Bankning kredit, likvidlik, foiz va valyuta risklarini aniqlash, baholash va kamaytirish jarayonlari ushbu tizim orqali amalga oshiriladi. Stress-testlar, kredit skoring, reyting baholari va xedjirlash usullari risklarni pasaytirishda qo'llaniladigan asosiy amaliy vositalar hisoblanadi. Risklarni samarali boshqarish bankning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, muammoli aktivlarni boshqarish (Non-Performing Asset Management) mexanizmi ham alohida ahamiyatga ega. Qaytmay qolgan yoki muammoli kreditlarni qayta restrukturizatsiya qilish, sug'urta va kafolat mexanizmlarini qo'llash, ta'minotlarni realizatsiya qilish hamda muammoli aktivlarni ikkilamchi bozorda sotish orqali bank aktivlari sifati oshiriladi. Ushbu jarayon nafaqat bankning yo'qotishlarini kamaytiradi, balki uning moliyaviy barqarorligini tiklash va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ALM, Risk Management va Non-Performing Asset Management mexanizmlarining samarali qo'llanilishi tijorat banklari aktivlarini oqilona boshqarish, risklarni minimallashtirish hamda daromadlilikni barqaror oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar bankning qisqa va uzoq muddatli likvidlik ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarish samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, likvidlik darajasi va daromadlilikini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, aktivlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tijorat banklari faoliyatining ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Bank aktivlarini optimal joylashtirish, kredit siyosatini oqilona yuritish, investitsion faoliyatni kengaytirish va diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon bankning moliyaviy natijalarini yaxshilash bilan birga mijozlar ishonchini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aktivlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligi oshadi, investitsion salohiyati kengayadi va xalqaro moliya bozorlarida



raqobatbardoshligi kuchayadi. Bank menejmentida aktivlarni boshqarish jarayoni ssuda, valyuta va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish, strategik boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va daromadlilik bilan risklar o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashni talab etadi.

Mazkur jarayonda aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) mexanizmi bank balansining uyg'unligini, likvidlikni va foiz marjasini optimallashtirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, risklarni boshqarish tizimi kredit, likvidlik, foiz va valyuta risklarini aniqlash va kamaytirishga qaratilib, stress-testlar, skoring hamda xedjirlash vositalaridan foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, muammoli aktivlarni boshqarish mexanizmi (Non-Performing Asset Management) muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish, sug'urta va kafolat mexanizmlarini qo'llash orqali bank aktivlari sifatini oshiradi.

Shu tariqa, ALM, Risk Management va Non-Performing Asset Management tizimlarining integratsiyalashgan qo'llanilishi tijorat banklari uchun aktivlarni samarali boshqarish, risklarni minimallashtirish va daromadlilikni barqaror oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. — М.: КНОРУС, 2018. — 576 с.
2. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikligi: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2002. – 19 b.
3. Baxriddinov, Sh. (2023). Tijorat banklari aktivlarini boshqarish masalalari. Muhandislik iqtisodiyoti va menejment jurnali. <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/826>
4. Masharipov, M. (2024). Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1925>
5. Mardonova, Sh. (2024). Tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5600>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti
7. O'zmilliybank AJning rasmiy sayti

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)